

O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA ONA OBRAZI

Gulnora Rahmatova,*GulDU, O‘zbek filologiyasi yo‘nalishi**52-23-guruh talabasi*

Kalit so‘z: hikoya, lirik qissa, yozuvchi uslubi, badiiy mahorati, individuallik, realism, dramatism, ona obrazi, novellalar va h.k.

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘tkir Hoshimovning hikoyalari, ulardagi ona obrazi tasviri va ifodalanishi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yozuvchi mahorati muammosiga ham e‘tibor qaratilgan. O‘tkir Hoshimov ijodida qissa janri lirik qissa darajasiga ko‘tarilganligi, qissaning boshqa ijodkorlar asarlaridan tubdan farq qilishi xususida ham fikr yuritilgan.

Keywords: story, lyrical story, writing style, artistic skill, individuality, realism, dramatism, mother image, short stories, etc.

Abstract. This article is devoted to the stories of Otkir Hoshimov, the issues of the depiction and expression of the mother image in them, and also focuses on the problem of writing skill. The idea is also expressed that in the work of Otkir Hoshimov, the genre of the story has risen to the level of a lyrical story, and that the story is fundamentally different from the works of other authors.

Sermahsul ijodkor, shoir va yozuvchi O‘tkir Hoshimov asarlarini o‘qir ekanmiz, xoh u she‘r bo‘lsin, xoh u qissa yoki roman qaysi janrda yozilganligidan qat’iy nazar barchasida ona siymosi alohida o‘rin tutadi. “Dunyoning ishlari” qissasi, “Ikki eshik orasi” romani, “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyalari shular jumlasidan. Ayniqsa, “Dunyoning ishlari” qissasi alohida o‘rin egallaydi. Bu asarni to‘laqonli ravishda onalar haqidagi asar deya olamiz, chunki adib bu asarida onalar haqida juda ko‘plab katta-kichik hikoyalarni keltirib o‘tadi. Qolaversa, ushbu asar muqaddimasida “Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o‘xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag‘ishlanadi, aziz Onajonlar!” degan jumlar bor.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Dunyoning ishlari” qissasi katta-kichik novellalardan iborat bo‘lib, ushbu asar uzoq yillar davomida yozilgan va 2005-yilda “Sharq nashriyoti” tomonidan nashr etilgan. O‘zbek xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday ta’riflagan: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlrimizning aqalli bittasini uza oldizmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z

oldimizda ko‘ndalang turib qoladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi”.

Qissaning birinchi hikoyasi bo‘lgan “Oq oydin kechalar”da ona va o‘g‘il suhbatida davomida onalar har doim har bir narsaning eng yaxshisi, eng a’losini o‘z farzandiga tilashini bolasiga eng katta, eng yorug‘ yulduzni, o‘ziga esa kichkinagina yulduzni tanlashi orqali juda ham chiroyli tarzda chizib bergan. Ona kichik yulduzni yetimcha yulduzga qiyoslab, ularga rahm-shafqat qilish kerakligini ta’kidlaydi. Bu bilan onaning shu qadar oqko‘ngil va mehribon, rahm-shafqatli va jonkuyar ekanligi ham yoritilgan.

“Haqqush” hikoyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, onaizor “Ilhaq va Isqoq” afsonasini aytib berar ekan, yozuvchi tili bilan aytganda inidan mo‘ralagan qaldirg‘och bolasidek ko‘rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolasining bir-biri bilan ahil-inoq bo‘lib yashashini istagan. “Eng og‘ir gunoh” hikoyasida yozuvchi bir butun oilaning tinch va osoyishta yashashida onaning roli muhim ekanligini, bundan tashqari o‘zi haqoratlansa-da farzandi kaltak yemasligi, jigargo‘shasi jazolanmasligi uchun bolasining qilgan aybini o‘z bo‘yniga oladi. Onasi birgina soqqani boshqa yong‘oqlarga qo‘shib chaqib tolqonga qo‘shib qo‘yganida bola qanchalik jahl qilsa ham onaizor kulib turib, akang boshqa yasab beradi”, - deb uni ovutishga harakat qiladi. “Surat” hikoyasi shunday boshlanadi: Dunyoning ishlari doim shoshilinch. Odatdagidek tik turgancha nonushta qilayotgan edim.

Onam odatdagidek qistardi:

- O‘tirsang-chi, bolam. Birpas o‘tirgin.
- Bo‘ldi, ketdim.
- Shoshma, bolam. – Onam ko‘zimga odatdagidan boshqacha, qandaydir mung bilan termildi. – Gap bor. Tipirchilab soatga qaradim: hali yoqilg‘i olish kerak, ishga borish kerak, keyin nashriyotga o‘tish...
- Nima edi?

Onam ko‘zimga hamon ma’yus termilib o‘tirardi.

- Suratga tushaylik, – dedi to‘satdan.

Ajablandim.

- Nega?
- Yaqinda men o‘laman.

Onam bu gapni xuddi: “Qo‘shninikiga chiqib kelaman”, degandek ohangda aytdi. Kulib yubordim. Yozuvchi hikoya davomida onasi vafotidan so‘ng, onaizori uchun vaqt ajratmagani, bir dasta surati bo‘lsa-da, onasi bilan tushgan hech bir surati yo‘qligini o‘ylab ming afsus va nadomatlar qiladi, afsuski vaqt oliy hakam, vaqt o‘z hukmini o‘tkazib bo‘lgan edi. Yozuvchi bu hikoyasi orqali har bir inson yaqinlarini, jannat oyoqlari ostida bo‘lgan mushfiq onalarni vaqt ularni bizdan ajratmasidan oldin, biz onalarimizga vaqt ajratishimiz kerakligini uqtiradi. Bizlar uchun borini hattoki jonini berishga tayyor bo‘lgan farishtalarimiz – onalarimizni

e'zozlashimiz, ardoqlashimiz, ularga doimo yaxshi muomalada bo'lishimiz lozimligini ta'kidlaydi.

“Qanoat” hikoyasini o'qir ekanmiz, beixtiyor onalar sabriga, matonatiga qoyil qolamiz. Oilani saqlab qolish uchun sabr va matonat qanchalik muhim ekanligiga amin bo'lamiz. Asarni o'qir ekanmiz, ba'zi joylarida kulib, ba'zi joylarida o'zimizni tiya olmas darajada yig'lay boshlaymiz. Bu asarni o'qib chiqqan har bir insonning onasiga bo'lgan hurmat va ehtiromi, muhabbati oshadi, onalar qay darajada tahsinga loyiq inson ekanligiga guvoh bo'ladi.

“Po'stdumbali moshkichri” hikoyasiga to'xtaladigan bo'lsak, hikoya davomida yozuvchining boshidan kechirgan ba'zi bir voqealar rivoji hikoya qilinar ekan, adibning olgan “pora” sini ko'rgan onaning holati quyidagicha tasvirlanadi:

– Nima bu? – dedi hayron bo'lib. Iljaydim.

– Pora!

Onam yonimdagi stulga o'tirib qoldi.

– Nima? Kulib yubordim.

– Pora! Naim sartarosh pora obkepti.

Oyim goh menga, goh “garimdori” nusxali kosaga qarab birdan rangi o'chdi.

– Endi shu hunarni o'rgandingmi? – dedi.

rostakamiga ranjib. – Adang senga pora yeyishni o'rgatgan emasdilar, shekilli.

Qarasam, oyim chindan ham xafa bo'ladigan. Ishtaham bo'g'ildi. Kosani nari surdim. Oyim jirkangandek, qiyiqchani ikki barmog'i orasida qisib ushladi-da, ayvonga opchiqib tashladi.

O'sha yoqdan allanima deb o'ziga-o'zi gapirgani eshitildi... Ushbu tasvirlar orqali bolaning qanday inson bo'lib yetishishida onaning ta'siri qay darajada ekanligi yuqoridagi holatda chizib beriladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, ota-onasini ardoqlagan, hurmatini joyiga qo'yadigan, doimo ularning duolarini olib, roziligini olib yuradigan insonlar ikki dunyo saodatiga erishishadi. Ish va ishlarida ham yuksak cho'qqilar va marralarni egalaydi. Hayoti baxt va quvonchga to'la bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Hoshimov, O'. (2018). Dunyoning ishlari. Qissa. –T.: O'qituvchi. 2005.
2. Botirboyev, F. P., Abdullayeva, O. O., & Shermatova, U. S. (2021). O'ljas
1. Sulaymonov ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic
2. research in educational sciences, 2(4), 2013-2018.
<https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00834>
3. 1385-2021-00834
4. Fayzullayeva, O. X. (2020). Diversity in writing Uzbek sonnets. *Theoretical & Applied Science*,(4), 627-633.

5. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
6. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. *European Scholar Journal*, 2(4), 233-236.

